



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O'ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH AGENTLIGINING
TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI**

O'zbekiston Respublikasi, 100174 Toshkent shahri, Olmazor tumani, A.Farobiy ko'chasi 333A uy
tel: (998-71) 202-00-11 (1814), e-mail: departstandart@exat.uz, uzstdepartament@umail.uz

“ 28 ” mart 2025-yil 1848 - son

**Mashinasozlik mahsulotlarini
sertifikatlashtirish organlariga
(ilovaga muvofiq)
nusxasi: Bojxona qo'mitasiga**

OGOHLANTIRISH XATI!

O'zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida”gi Qonunining 18-moddasida texnik reglamentlar mahsulot kelib chiqqan mamlakatdan va (yoki) joydan, shuningdek mahsulotni ishlab chiqaruvchining, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilining, sotuvchining yoki import qiluvchining mulk shaklidan qat'i nazar, bir xil tarzda va teng qo'llaniladi.

O'zbekistonda avtotransport vositalarini muvofiqligini baholash Vazirlar Mahkamasining “Muomalaga chiqarilayotgan g'ildirakli transport vositalarining xavfsizligi to'g'risida” 2017-yil 25-apreldagi 237-son qarori bilan tasdiqlangan umumiy texnik reglament (keyingi o'rinlarda – Reglament)ga asosan amalga oshiriladi.

Reglamentning 4-bandiga asosan transport vositalari texnik reglamentga muvofiq bo'lganida Respublika hududida muomalaga chiqariladi.

“EURO PROF TEST” MChJning 2025-yil 28-martdagi 28/03-son xati bilan

Leapmotor kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan M1 toifadagi “Leapmotor” tovar belgisi “C16” rusumli (VIN raqami LFZ93AN96RD091431) yengil transport vositasini muvofiqligini baholash natijasida, Reglamentning 3-ilova 44-bandida (BMTning 10-son qoidasi) belgilangan talabga (Широкополосные электромагнитные помехи) nomuvofiqligi aniqlanganligi ma'lum qilingan.

Mazkur nomuvofiqlik avtotransport vositasidan foydalanishda uning elektronikasi yoki boshqa qurilmalaridan foydalanishda muammolarga, ayrim hollarda tegishli tizimlarning ishdan chiqishiga olib keladi.

Shuningdek, mazkur holat O'zbekiston Respublikasining “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonuni 4-moddasida belgilangan iste'molchilarning huquqlarini poymon qilinishiga olib keladi.

Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish maqsadida, aniqlangan nomuvofiqlik Leapmotor kompaniyasi tomonidan bartaraf etilgunga qadar,

M1 toifadagi “Leapmotor” tovar belgisi avtotransport vositalarini sertifikatlashtirish yuzasidan arizalarni qabul qilishni to'xtatishigiz so'raladi.

Eslatma: O'zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida” Qonuni 47-moddasiga asosan muvofiqlikni baholash qoidalarini buzgan muvofiqlikni baholash organi va uning mansabdor shaxslari, agar mazkur kamchilik texnik reglamentlar talablariga javob bermaydigan mahsulotni ishlab chiqarishga yoki arizachiga zarar yetkazilishiga, shu jumladan muvofiqlik sertifikatini berish asossiz

ravishda rad etilishi, muvofiqlik sertifikatining yoxud muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyaning amal qilishi to'xtatib turilishi yoki tugatilishi natijasida foydaning yo'qotilishiga olib kelsa, qonunga hamda sertifikatlashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladi.

Ilova__ varaqda

Inspeksiya boshlig'i



A. Abduraxmanov